

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov

Raqamli ta'lif muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi..... 8

B.Shermuhammadov, D.Namozova

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli..... 13

B.Shermuhammadov, B.Baratov

Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari 18

D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarmanova

Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish..... 22

B.Qurbanova

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'lifda ta'lif jarayonini samarali tashkil etish 25

I.Siddiqov

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari 29

A.Xo'jayev

Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 33

X.Qodirov

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari 38

B.Baydjanov

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi 42

A.Turaxanov

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 49

R.Madalyev

Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati..... 52

X.Yulbarsova

Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 56

A.Soyibnazarov

Ta'lifda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lif..... 62

S.Kamchiyev

Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati..... 67

N.Mamatqulova

Ta'lifda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari 71

S.Sulaymanova

Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari..... 75

M.Aripjanova

Professional ta'lif o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili 80

D.Yo'idosheva

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari 83

N.Dusimbetova

Bo'lajak jurnalislarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati..... 88

T.Turgunbayev

Harbiy ta'lifda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari 92

N.Yuldasheva

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar 95

TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMINI QO'LLASHNING AYRIM JIHATLARI**SOME ASPECTS OF APPLICATION OF CREDIT-MODULE SYSTEM IN EDUCATION****НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В ОБРАЗОВАНИИ****Mamatqulova Nilufar Boyzoq qizi¹****¹Mamatqulova Nilufar Boyzoq qizi**

- Andijon Davlat universiteti ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)yo'nalishi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Kredit-modul tizimi ta'limning kelajagi hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta'lif muassasalarida kredit-modul tizimini yo'lgan qo'yishning shart-sharoitlarini muhokama etish, ushbu tizimning afzalliklarini ko'rsatish, tizimning kelib chiqish tendensiyalarini tahlil etish va takliflar kiritishdan iborat.

Аннотация

Кредитно-модульная система – будущее образования. Цель данной статьи - обсудить условия создания кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях, показать преимущества этой системы, проанализировать тенденции зарождения системы и внести предложения.

Abstract

The credit-module system is the future of education. The purpose of this article is to discuss the conditions for establishing the credit-module system in higher education institutions, to show the advantages of this system, to analyze the trends of the origin of the system and to make suggestions.

Kalit so'zlar: Office Hours, GER, kredit-soat, fanlarga yozilish, Registrator ofisi, GPA, transkript, edvayzer, talabaning shaxsiy o'quvrejasi, ishchi o'quv reja.

Ключевые слова: рабочее время, ОКО, кредитный час, предметная регистрация, средний балл успеваемости, транскрипт, консультант, личный учебный план студента, рабочий учебный план.

Key words: Office Hours, GER, credit hour, subject registration, Registrar's Office, GPA, transcript, advisor, student's personal study plan, working study plan.

KIRISH

Jahon amaliyotida elektron ta'lif muhiti (masofaviy)da o'quv jarayonini amalga oshirishni joriy etish bosqichiga doir pedagogik modellarni ishlab chiqish, elektron ta'lif muhitida o'qitishning psixologik-pedagogik xossalari aniqlashtirish, ta'lif jarayonida optimal o'quv variantlarni tanlashni amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, texnika yo'nalishidagi ta'lif muassasalarining elektron ta'lif muhiti sharoitida bo'lajak muhandislarni kasbiy o'qitishda zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish oliy ta'lif sifatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi. Buning uchun, oliy ta'limning xalqaro andozalarga mosligini ta'minlash va ijtimoiy buyurtmaga muvofiq malakali muhandislarni axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar negizida kasbiy o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va elektron ta'lif muhitida amalga oshirish talab etiladi.

Respublikamizda ta'lif jarayonini modernizatsiyalash maqsadida xorijiy oliy ta'lif muassasalari filiallari, qo'shma fakultetlar va ta'lif dasturlari amalda joriy qiliindi. "Uzluksiz ta'lifni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish" va "ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lif muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" [1]. Bu esa, bo'lajak muhandislarni tayyorlashning mazmuniy tavsiflari, elektron ta'lif muhiti sharoitida modulli va dasturlashgan o'qitish texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va malakali mutaxassislarni o'qitish jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldag'i PF-5349-son "Axborot texnologiyalari kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-5264-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'limgizning tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohibda ta'limgizning ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limgizning tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'limgizning muassasalarida ta'limgizning sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish kredit-modul tizimini yo`lga qo'yishga asos bo'ladi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda malakali kadrlar kasbiy tayyorgarligini turli aspektlarda takomillashtirishga doir fundamental tadqiqotlar, elektron ta'limgizning muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda bo'lajak muhandislarni axborot texnologiya va tabiiy-ilmiy fanlar negizida o'qitish bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan R.H.Jurayev, Sh.E.Qurbanov, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, U.I.Inoyatov, A.R.Xojaboyev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, G.N.Ibragimova, A.Haitov, F.M.Zakirova, M.Aripov, O.Turakulov, N.I.Taylaqov, R.D.Shodihev, L.N.Shibarshova, I.A.Otabayev, U.Yuldashev va boshqa olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimiz olimlaridan M.X.Lutfillayev, S.I.Qulmamatov, N.A.Kayumova, B.Z.Turayev, Z.A.Mardanov, D.A.Madjidova, H.Y.Najmiddinova, X.B.To'xtaxo'jayev, B.SH.Madaminov va M.Y.Eshnazarovalar ta'limgizning jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikalarini takomillashtirish va individual ta'limgizning olish hamda mustaqil ta'limgizning sifatini yaxshilash bo'yicha ishlar olib borganlar [2,3,4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Kredit soat" tizimi dastlab AQShda paydo bo'lgan va takomillashtirishgan. 1869 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limgizning atoqli namoyandasasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o'chashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892-yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSh milliy ta'limgizning qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'innini yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o'rta maktablar uchun ham "kredit" tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'limgizning bosqichlarigacha kengaytirdi.

Ispaniyada universitet ta'limgizning ko'p pog'onali bo'lib quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

- birinchi ta'limgizning davri: u kamida 3 yil davom etadi va 180-270 ispan kreditlariga teng bo'ladi;
- birlashtirilgan birinchi va ikkinchi davrlar: 4-5 yilga mo'ljallangan bo'lib (tibbiyot mutaxassisliklari uchun 6 yil), birinchi davr - 2-3 yil, ikkinchisi - 2 yil davom etadi. Ko'rsatilgan 4,5 va 6 yilda talabalar 300-500 kredit to'plashadi.
 - ikkinchi davr – yakka tartibda;
 - uchinchi davr – doktorantura.

Birinchi davr yakunida talabalarga Diplomado, Arquitecto Tecnico va Ingeniero Tecnico kabi akademik darajalar berilishi mumkin. Ikkinchi davr yakunida esa - Licenciado, Arquitecto yoki Ingeniero Superior darajalari berilishi mumkin. Doktorlik darajasi uchinchi davrda o'qishni yakunlagan va dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan talabalarga beriladi.

Ispaniyada "kredit"ni aniqlashga o'zgacha yondashiladi – har bir kredit

10 soat auditoriya mashg'ulotlariga mos keladi, to'plangan kreditlar yig'indisiga qarab talabaning o'zlashtirishi baholanadi. Talabalar tomonidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha alohida kreditlar to'planadi, ularni hatto auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari boshqa o'quv ishlarini bajarib ham olish mumkin.

Belgiyada kredit ta'limgizning Yevropa ECTS kredit tizimlariga moslashtirilgan va xalqaro hamkorlik doirasida qo'llaniladigan ko'rinishda taqdim etilgan.

Bugun Britaniyada ta'limgizning Birlashgan Qirollikning CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Kreditlarni to'plash va ko'chirish sxemasi/tizimi) tizimiga asoslangan bo'lib, uning maqsadi ko'p sonli malaka hujjatlari tizimini har bir tur uchun alohida kreditlar

PEDAGOGIKA

belgilash orqali tartibga solish va yagonalashtirishdir. CATS tizimi Birlashgan Qirollikda, Janubiy Afrikada va Yangi Zellandiyada keng tarqalgan.

Kredit ta'lif tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'ssatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lif tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'lif tizimlarida ko'proq tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta'lif dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollilikni va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lif sifatini oshirishga imkon beradi.

Kredit-modul tizimiga o'tishda bir qator muammoli jihatlarga e'tiborimizni qaratishimiz va bu tizimning afzallik jihatlariga urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, talabaning umumiyl yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lif yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta'lif tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo talabaning mustaqil ishiga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 5 kreditlik fanni o'zlashtirgan bo'lsa, u 5 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya'ni u ushbu fanning ma'ruzalarida, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o'zlashtirgan talaba uni qanday bahoga o'zlashtirganidan qat'iy nazar u 5 kreditni qo'lga kiritadi.

O'quv jarayonini rejalashtirish oliy o'quv yurtining o'quv faoliyatini boshqarishda muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dastlab o'quv yili davomidagi asosiyligi o'quv jarayonlari va ularni amalga oshirish muddatlari aks ettirilgan akademik taqvim tuziladi;
- namunaviy o'quv rejaga qo'shimcha ravishda tanlov fanlarining ro'yxati shakllantiriladi;
- namunaviy o'quv reja va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda edvayzerlar yordami bilan, Registrator Ofisi va dekan nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy o'quv rejasi shakllantiriladi;
- ishchi o'quv rejalarini tuziladi.

Har bir fanning hajmi butun sonli kreditlar bilan ifodalanadi. O'rta hisobda fanlar soni 40 tadan oshmasligi sharti bilan bitta fanga o'rtacha $240/40=6$ kredit ajratilishi mumkin, fanlar uchun kreditlar undan kam yoki ko'p ham bo'lishi mumkin.

Ishchi o'quv rejalarida auditoriya mashg'ulotlarining nisbatlari (ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va h.k.) fanning o'qitilish usullaridan kelib chiqqan holda oliy o'quv yurtining ilmiy-uslubiykengashi tomonidan komissiyalar xulosasiga ko'ra belgilanadi.

Kredit ta'lif tizimida o'qituvchi (pedagog) o'zining vazifasiga ko'ra ta'lif jarayonining quyidagi subyektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkin:

- lektor;
- tyutor;
- edvayzer;
- maxsus komissiya a'zosi.

Lektor sifatida yuqori akademik professorlar yoki dotsentlar safidan malakali o'qituvchilar tayinlanadi. Ular ma'ruza darslarini yuqori ilmiy-uslubiy darajada olib borishadi.

Ma'ruzalar akademik potoklarga, ya'ni mutaxassisligi yaqin bo'lgan bir nechta guruhlarga o'qiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditorianing texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Professor va dotsentlar o'zlarining ilmiy saviyasi, ilmiy izlanish yo'nalishlari va pedagogik mahoratidan kelib chiqib bir mutaxassislik ichida bir nechta fanlaridan ma'ruza o'qishlari mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda yurtimizning aksar oliygochlarda kredit-modul tizimi yo'lga qo'yildi. Jarayon hali tugallanmaganligini inobatga olib aytish mumkinki, ushbu tizimni to'liq va mukammal amalga oshirish uchun nafaqat oliygochlarni ma'muriyati, balki o'qituvchilardan, talabalardan faollik, tirishqoqlik va mehnatsevarlik talab etiladi. Zero, ilm yo'lida qo'yilgan qadamlar kelajakda o'z mevasini bermay qo'ymaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni:// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –Tashkent, 2017. – B.39. (Decree of the Resident of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan".// Collection of Legal Documents of the Republic of Uzbekistan. -Tashkent, 2017. - p.39.)
2. Абдуқодиров А.А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б. (Abdukadirov A.A. Innovative technologies in education. - Tashkent: Talent, 2008. - 180 p.)
3. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining malakasini oshirishda masofali o'qitish metodikasi //Uzluksiz ta' lim. IMJ. -№5. -T.: 2004. -B. 3-12. (Methodology of distance education in improving the qualifications of academic lyceum and vocational college teachers //Continuous education. IMJ. - #5. -T.: 2004. -p. 3-12.)
4. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta'lif jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. f. D.diss. -T.: 2007. -305 b. (Begimkulov U.SH. Theory and practice of organization and management of informatization of pedagogical educational processes. Ed. f. d diss. -T.: 2007. -305 p.)
5. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Dissertatsiya PhD: 13.00.01.-Toshkent. 2017.-130-b. (Ibragimova G.N. Development of students' creative abilities based on interactive teaching methods and technologies. Dissertation RhD: 13.00.01.-Tashkent. 2017.-130-p.)
6. Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lif muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish. Diss. ... p.f.d. DSc. – T.: - 2017. – 342 b. (Turakulov O.Kh. Improvement of scientific-methodological support of training of junior specialists in an informed educational environment. Diss. ... r.f.d. DSc. - T.: - 2017. - 342 p.)
7. Otabayev I.A. Kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta'lifini samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Dissertatsiya PhD: 13.00.05.-Toshkent. 2018.-128-b. (Otabayev I.A. Improvement of the scientific and methodological foundations of effective organization of industrial education in vocational colleges. Dissertation RhD: 13.00.05.-Tashkent. 2018.-128-p.)
8. Oliy ta'lif o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) : Dis. ... ped. fan. dok. – Samarqand: 2005. – 185 b. (The theory and practice of information technology integration in the improvement of the educational process of higher education (in the case of informatics and natural sciences): Diss. ... ed. science. doc. - Samarkand: 2005. - 185 p.)
9. Mustaqil ta'lifni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi («Informatika va axborot texnologiyalari» fani misolida):Dis. ... ped. fan. nom. – Guliston: 2008. – 122 b (The methodology of using computer technologies in the organization of independent education (in the example of the science of "Informatics and information technologies"): Dis. ... ed. science. name - Gulistan: 2008. - 122 p)
10. Kasb-hunar kollejlarida "axborot texnologiyalar" fanidan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi: Dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent: 2008. – 128 b (Methodology of organization and conducting of training sessions in "information technologies" in vocational colleges: Dis. ... ed. science. name - Tashkent: 2008. - 128 p)
11. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish: Dis. ... ped. fan. fal.dok. – Toshkent: 2018. – 119 b (Formation of professional competence of editors in the field of informatics and information technologies in the integration of general professional sciences: Dis. ... ed. science. fal. doc. - Tashkent: 2018. - 119 p)
12. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modul texnologiyalarini takomillashtirish: Dis. ... ped. fan. fal.dok. – Chirchiq: 2019. – 153 b. (Improvement of module technologies in professional training of future biology teachers: Dis. ... ed. science. fal. doc. – Chirchik: 2019. – 153 p.)
13. Tabaqalashgan yondashuv asosida mehribonlik uylari tarbiyanuvchilarini oila sharoitiga reintegratsiyasining ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish: Dis. ... ped. fan. fal.dok. – Chirchiq: 2019. – 145 b., (Improvement of the socio-edagogical system of reintegration of children of orphanages into family conditions based on a differentiated approach: Dis. ... ed. science. fal. doc. – Chirchik: 2019. – 145 p.,)
14. Oliy ta'lif muassasalarida algebrani o'qitishda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatlarini shakllantirish metodikasi: Dis. ped. fan. nom. – Namangan: 2011. – 138 b (Methodology of formation of independent educational activities of students in teaching algebra in higher education institutions: Dis. ed. science. name - Namangan: 2011. - 138 p)
15. Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida talabalar ta'lifini individuallashtirish (jismoniy tarbiya misolida) : Dis. ped. fan. fal.dok. – Chirchiq: 2018. – 142 b (Individualization of student education in editorial higher education institutions (in the example of physical education): Diss. ed. science. fal. doc. – Chirchik: 2018. – 142 p)
16. 5-6- sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya darslarida tabaqlari-individual yondashish: Dis. ped. fan. nom. – Toshkent: 2005. – 126 b. (Class-individual approach to 5th-6th grade students in physical education classes: Dis. ed. science. name - Tashkent: 2005. - 126 p.)
17. Masofali o'qitish orqali talabalarning "Hisoblash usullari" kursini o'zlashtirish samaradorligini oshirish uslubiyoti: Dis. ped. fan. nom. – Namangan: 2012. – 139 b. (Methodology of improving the efficiency of students' mastery of the "Calculation methods" course through distance learning: Dis. ed. science. name - Namangan: 2012. - 139 p.)

(Taqrizchi: N.O'rnova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.)